

## **XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Ikromov Elyor Ibodulloyevich**

*Osiyo xalqaro universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi*

---

### **A R T I C L E I N F O.**

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti, xizmatlar sohasi, menejer, korxona, kadrlar, boshqarish, bozor iqtisodiyoti, tashkilot, rahbar mehnati.

---

### **Annotatsiya**

ushbu maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar sohasining rivojlanishi tashkiliy jihatdan samarali va bozorga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat faoliyatini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni tarkibiy qismlarining murakkabligi va xilma xilligi, ularning bajarilish tadbirlarini mustaqil tanlash, hisoblash, loyihalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o'zgarishlar kiritadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida xodimlar mehnat faoliyatining eng samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida xizmat ko'rsatish jarayonlarini o'rganish, takomillashtirish va har tomonlama asoslangan xizmat ko'rsatish me'yorlarini ishlab chiqish va ish vaqtidan samarali foydalanish asosida mehnat samarasini oshorish imkoniyatini aniqlash zarur. Mehnat samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida ham mayjud bo'ladi. Xizmat ko'rsatish korxonalar xarajatlarini kamaytirish, ishlab chaqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirish bilan bog'liq emas, balki o'zları ishlab chiqarayotgan mahsulotlar yoki ko'rsatayotgan xizmatlar kamchiligidan, tanqisligidan foydalanib, ularning baholarini oshirish evaziga rejalashtirilgan miqdorda daromad olishga erishmoqdalar. Bunday hol, o'z navbatida nafaqat boshqarib bo'lmaydigan inflyasiya jarayonining yanada rivojlanishini kuchaytiradi, balki har tomonlama ilmiy asoslangan xizmat ko'rsatish normalarini keng joriy etib, xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish va boshqarish xarajatlarini qisqartirishga umuman imkon bermaydi.

Hozirgi sharoitda ishchilar faoliyatining mehnatdagi buyumlashgan elementlari bilan o'zaro aloqasini o'rnatibgina qolmay, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari bo'lgan «inson-texnika» o'rtaida mehnat munosabatlari shakllantirish, jonli mehnat samaradorligini oshirish kabi muammolarni echish zarur bo'lmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida shakllangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm xizmatlar bozorida ularning faoliyatini to'laqonli nazorat qilish va boshqarishni tashkil eta olish imkoniyatiga ega emas. SHuning uchun ham xizmat ko'rsatish sohasi tashkiliy tarkibini

optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibiy tuzilmasi – bu murakkab tashkiliy-iqtisodiy tuzilma bo'lib, uning asosiy elementlari sifatida tarmoqning moddiy-texnika ta'minoti, kreditlash, sug'urta, marketing va huquqiy xizmat kabilar kiradi.

Xorijiy mamlakatlar xizmat ko'rsatish sohasining tashkiliy tuzilishi xizmatlar bozori tashkiliy tuzilmasining tadqiqoti orqali respublikamizda xizmatlar bozorining tashkiliy tuzilmasini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- amal qilish mexanizmlari bo'yicha (vositachilik moliyaviy, axborot-texnologik, huquqiy, marketing);
- mulk shakli bo'yicha (xususiy, kooperativ(jamoa), davlat, ijtimoiy, xorijiy);
- ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lami bo'yicha (xalqaro, milliy, hududlararo, hududiy, mahalliy);
- ko'rsatiladigan xizmatlar turlari va yo'nalishlari bo'yicha: ishbilarmonlik xizmatlari (moliyaviy, sug'urta, kredit xizmatlari), taqsimot xizmatlari (savdo, umumi ovqatlanish), ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy madaniyat, huquqiy xizmatlar).

Ko'pchilik xorijiy iqtisodchi olimlar xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishini uning tarmoq belgilari va rivojlanish nuqtai nazaridan tasniflashni taklif etishadilar. Bizning fikrimizcha, ushbu sohani tashkiliy-iqtisodiy nuqtai nazardan tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Bunday holda quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish zarur:

- axborot-tijorat infratuzilmasi (marketing markazlari, reklama agentliklari, axborotlarni to'plash va qayta ishlash markazlari, va h.z.);
- iqtisodiy-huquqiy infratuzilma (sudlar, huquqiy maslahat markazlari, advokatlik va notarial idoralar va h.z );
- moliyaviy-kredit infratuzilma (tijorat banklari, kredit, sug'urta va kafolat tashkilotlari);
- savdo, vositachilik infratuzilmasi (yarmarkalar, birja, savdo uylari tijorat markazlari va h.z).

Xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini ta'minlashda yuqorida ta'kidlangan tasniflar muhim ahamiyatni kasb etadi. Ammo, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida xizmatlar salmog'ini oshirishga qaratilgan islohotlar ushbu xizmat sohalarini yanada rivojlantirishni talab etadi. Masalan, xizmatlar turlari sifatida savdo uylari, tashkilotlari, yarmarkalar, oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlarini realizatsiyasiga hamda ularni ishlab chiqaruvchilarini samarali faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy mexanizmlaridan biri – bu soha uchun xizmat qiladigan axborotlar tizimidir. Mazkur tizim o'z ichiga, fikrimcha, quyidagilarni qamrab oladi: reklama agentliklari, marketing xizmati markazlari, doimiy yoki ko'chib yuruvchi ko'rgazmalar, axborot vositalari va elektron aloqa tizi mlari va boshqalar. Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasida axborot ta'minotini yanada rivojlantirish aholini xizmatlarga bo'lgan to'lov qobiliyatini istiqbollashtirishni asoslash, ushbu sohani o'sish dinamikasini baholash, ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va samaradorligini yaxshilashga imkoniyat yaratadi. Buning uchun viloyat miqyosida xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish bo'yicha maxsus xizmatni, marketing markazlarini tashkil etish kerak. Ushbu tashkiliy tuzilma quyidagi faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- yangi xizmat turlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish bo'yicha ilmiy- amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish;
- xizmatlarga ehtiyoj sezayotgan sub'ektlar uchun viloyat miqyosida xizmatlar konyukturasi uchun hisobotlar, bukletlar, ma'ruzalar tayyorlash;
- ko'rsatiladigan xizmat sifatini aniqlash uchun so'rovnomalar, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish;

- xizmatlar sohasidagi muammolarni echish bo'yiga ijtimoiy tadbirlarda, yarmarkalarda, ko'rgazmalarda ishtirok etish.

Xizmat ko'rsatish korxonalari axborot ta'minotini ta'minlovchi muhim tashkiliy bo'g'in bu reklama faoliyatidir. Uning ushbu soha uchun ahamiyati xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni turli xil shakllarda omma orasida tarqatishdan iborat, shu bilan bir qatorda reklama nafaqat axborot manbai, balki u xizmatlarga yangi extiyojlar va aholini to'lov qobiliyatini rag'batlantiruvchi muhim tashkiliy mexanizmdir.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'z reklama xizmatlarini tashkil etish imkoniyatiga ega emaslar, chunki ularning bu maqsad uchun na moliyaviy, na moddiy imkoniyatlari mayjud. Shuning uchun, bizning fakrimizcha, viloyat miqyosida xizmat turlarini targ'ibot qiluvchi xizmat ko'rsatish korxonalari va ist'emolchilar o'rtasida shartnomalar tuzuvchi, maxsus buyurtmalar bilan ishlovchi maxsus reklama agentliklarini tuzish zarur.

Xizmatlar bozori muqobil tarzda rivojlanib borayotgan tarkibiy elementlardan yana biri – bu ularning yarmarka va ko'rgazmalaridir. Hozirgi vaqtida ulgurji yarmarka va ko'rgazmalarning vazifalari tubdan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar xizmatlar faoliyati samaradorligini real tarzda oshirishga yo'naltirilgandir.

Xizmat ko'rsatish bo'yicha axborotlarni toplash, qayta ishslash va ularni etkazib berishni takomillashtirishdan keladigan samara transaksion xarajatlarni kamaytirishda, xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishda, moddiy-texnik ta'minotni yaxshilashda, moliyaviy resurslar aylanishini jadallashtirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun, hozirgi vaqtida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari haqida axborot resurslari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish, ularning bazaviy to'plamini tashkil etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, sohaning rivojlanishini istiqbollashtirish yo'nalishlarini tadqiq etishda manba bo'lib hisoblanadi. Buning uchun hududiy darajada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muxsus tashkiliy tuzilmani shakllantirish kerak. Mazkur tashkiliy tuzilma tarkibidagi xizmat ko'rsatish sohasining alohida tarmoqlari va yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashgan bo'limlar tashkil etish lozim. Masalan, ishbilarmonlik xizmatlari bo'yicha (moliya, kredit, sug'urta), taqsimot xizmatlari bo'yicha (savdo, umumiyligini ovqatlanish), ijtimoiy xizmatlar bo'yicha (sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va madaniyat, huquqiy maslahat ta'limi), maishiy xizmatlar, (axborot-kommunikatsion va hokazo). Mazkur ixtisoslashgan bo'limlar funksional tuzilmalar sifatida xizmatlar bozorida xizmat ko'rsatishning muayyan soha va tarmoqlarida bozor konyukturasi o'zgarishlariga qarab, samarali dasturni ishlab chiqish yuzasidan zaruriy axborotlar bilan ta'minlanishining tashkiliy asosi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, funksional tizimlar faoliyatlarining belgilangan masalalar bo'yicha maqsadidan kelib chiqqan holda, xizmat ko'rsatish sohalari va tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbolli rejali uchun ishlab chiqilishi mumkin. Ya'ni shuni e'tirof etish lozimki, viloyat (hudud) miqyosida xizmat ko'rsatish korxonalari haqida zaruriy axborot resurslarining qanchalik ko'p bo'lishi, ular faoliyatini tashkil etish, boshqarish, muvofiqlashtirish shunchalik samarali bo'ladi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun keyingi yillarda bir qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilingan. Ushbu qonun va me'yoriy hujjatlar xizmatlar bo'yicha axborot resurslari va ularning ma'lumotlari bankini respublikamizda va viloyatlarda tashkil etish va yanada kengaytirish xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Mening fikrimcha, hududiy darajada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha axborot ta'minotini shakllantirish zarur. Bunga ko'ra, viloyatda faoliyat yurituvchi xizmat ko'rsatish sub'yektlari uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishda ma'lumotlar banki muhim rol o'ynaydi:

- viloyat aholisiga, korxonalarga, tadbirkorlarga ma'lumotlar banki orqali ularning xizmatlar haqida to'liq ma'lumotlar olish imkonini beradi;
- viloyat miqyosida axborot punktlarini ochish, joylashtirish yo'li bilan jami aholi uchun axborotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi vaqtida tijorat-axborot infratuzilmasining muhim elementlari sifatida «Biznes klub»larni e'tirof etish mumkin. «Biznes-klub»lar tadbirkorlarni birlashtirish orqali ularni o'zaro aloqalarini mustahkamlashga olib keladiki, natijada xizmatlar bo'yicha axborotlarni keng tarqatilishiga sabab bo'ladi. Bunday holat xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini oshirishning yana bir tashkiliy mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Har qanday korxona faoliyatini tashkil etishning negizi bo'lib, mehnatni to'g'ri taqsimlash hisoblanadi.

Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida xodim holatining o'zgarib borishiga ta'sir etuvchi omillar, biror jarayon ta'sirida yangilanadigan yoki o'zgaradigan sabab va holatlarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning ilmiy-texnik va texnologik taraqqiyoti mehnat jarayonlarida xodim holatini o'zgartirishning daliliy ta'sir qiluvchi sababidir. Texnika-texnologiyaga bog'liq tarzda mehnat va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish ham uzluksiz o'zgarib boradi. Masalan, xizmat ko'rsatishdagi texnologik jarayon (qisqarishi) mehnat unumдорligi o'zgarishiga (oshishiga) olib keladi. Bu holat xodim mehnatidan intensiv foydalanishni oshiradi va mehnat talabchanligini pasaytiradi. Shuningdek mehnat jarayonidagi tashkiliy-texnikaviy omillarning ta'siri mehnat me'yorlarini takomillashtirishni zarurat etadi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish xodimlari faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlashning asosiy maqsadi samaradorlikka erishish bilan bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga: raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va realizatsiyasini amalga oshirish, ish kuchini tiklash uchun korxonalarining mavjud imkoniyatlari va natijalariga faol ravishda ta'sir etishdan iborat. Buning ma'nosi shuki, xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash bir tomondan, olinadigan foydani ko'paytirishga ko'maklashishi, ikkinchi tomondan esa mehnatga qobiliyatli jamoa yarata olish imkonini beradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash ularni samarali boshqarish borasida birinchi darajali vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek xizmat ko'rsatish jarayonida yuqori sifatga erishish va mehnat unumдорligini oshirish usullarini yaxshi o'zlashtirgan rahbar va mutaxasis kadrlarga talab ortib bormoqda. Korxona xodimlarining umumiyligi mehnat natijalari har bir xodimning shaxsiy mehnat natijalariga bog'liqidir. SHu sababli ularning birgalikda faoliyat olib borishlari uchun muayyan tartibni saqlab borish, ishning boshlanishi va tugallanishi, tanaffuslarga rioxha etish lozim. SHuningdek mehnat intizomini saqlab borishning aniq mexanizmi ham zarur.

Hozirgi vaqtida xizmatlar bozorida axborotlar roli jiddiy ravishda o'smoqda. Xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun axborotlarga yuqori ehtiyoj va axborot jarayonlarining shiddatli rivojlanishi korxonalarda uning tashkiliy bo'limlarini yaratishni birinchi o'ringa olib chiqadi. Haqiqatdan ham bunday axborot tizimlari xizmatlariga talab hududiy xizmatlar bozorini qamrab olish doirasigacha kengayib boradi.

Mening fikrimcha, korxonalarda axborotlashtirish bo'limlari quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi zarur:

- xizmatlar bozorida xizmatlarga bo'lgan talab va taklif haqida boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash;
- ma'lumotlarni qayta ishslash dasturini ishlab chiqish;
- mavjud yig'ilgan va to'plangan axborotlar asosida mu'lumotlar bazasini yaratish.

Umuman olganda bugungi innovatsion o‘zgarishlarni inobatga olgan holda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish orqali soha korxonalarining rivojlanishiga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. Gospodarka i Innowacie., 46, 366-372.
2. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 333-340.
3. Шадиев, А. Х., & Давронов, И. О. (2020). Роль развития персонала в повышении эффективности услуг и его влиянии на экономику. Вопросы науки и образования, (6 (90)), 15-17.
4. Шадиев, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. Вопросы науки и образования, (7 (91)), 29-31.
5. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 464-467).
6. Supievna, B. M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION.
7. Supievna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. Gospodarka i Innowacie., 42, 381-386.
8. Supiyevna, B. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Gospodarka i Innowacie., 42, 409-414.
9. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. Gospodarka i Innowacie., 46, 379-385.
10. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
11. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. Gospodarka i Innowacie., 46, 373-378.
12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. Modern Science and Research, 3(1), 747-753.
13. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. Modern Science and Research, 2(10), 835-839.
14. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. Modern Science and Research, 2(12), 877-882.
15. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. Modern Science and Research, 3(1), 754-758.
16. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. Modern Science and Research, 3(2), 974-978.
17. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. Gospodarka i Innowacie., 46, 265-269.
18. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT

- IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 3(2), 340-347.
19. қизи Раҳмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТISODIЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
  20. Nafisa, R. (2023). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 556-560.
  21. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. Modern Science and Research, 3(1), 111-115.
  22. Аvezова, Ш. М., & Жумаева, З. К. (2013). МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. СЕКЦІЯ 1. Економіка і управління національним господарством..... 9, 12.
  23. Примова, А. А., Усманова, Н. Ю., & Жумаева, З. К. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА. In ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ (pp. 199-202).
  24. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Ученый XXI века, 77.
  25. Рузметов, Б. Р., & Жумаева, З. К. (2020). АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 246-250).
  26. Жумаева, З. К., & Гафуров, Э. О. (2022). ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА. Редакционная коллегия, 358.
  27. Jumayeva, Z. (2024). THEORY OF SUPPLY AND DEMAND AND ITS MARKET RELATIONSHIP EFFECT. Modern Science and Research, 3(2), 426-432.
  28. Jumayeva, Z. (2024). WAYS AND METHODS OF DEVELOPING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. Modern Science and Research, 3(2), 433-440.
  29. Zamira, J. (2024). IQTISODIYOTDA SUNIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI. Gospodarka i Innowacje., 46, 320-325.
  30. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
  31. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
  32. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. Modern Science and Research, 3(2), 385-390.
  33. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. Gospodarka i Innowacje., 46, 336-343.
  34. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
  35. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. Gospodarka i Innowacje., 46, 270-273.

36. Hakimovich, T. M. (2023). BOSHQARUVCHILARNING SAMARADORLIKKA ERISHISHDAGI PROFESSIONALLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 421-425.
37. To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALARNING O 'RNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 258-264.
38. Sodiqova, N. (2024). ECONOMIC POLICY IN THE FIELD OF YOUTH EMPLOYMENT: FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 330-339.
39. To'rayevna, S. N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.
40. Sodikova, N. (2024). OTMdA "Iqtisodoyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari" fanini o 'qitishda raqamli texnologiyalarning o 'rni. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
41. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
42. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
43. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
44. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
45. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQARISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O 'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
46. Ibodulloyevich, I. E. (2024). RESPUBLIKADA XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISH ORQALI XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
47. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
48. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
49. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
50. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
51. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
52. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
53. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
54. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'SATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.

55. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. Modern Science and Research, 3(2), 635-641.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
57. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 3(2), 1257-1261.
58. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. Modern Science and Research, 3(1), 933-938.